

**DUNYONING LISONIY TASVIRI NAZARIYASINING HOZIRGI ZAMON
SEMANTIKASIDAGI O'RNI**

M.A.Yigitaliyeva
QDPI, o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada olamning lisoniy manzarasiga doir tadqiqotlar yuzasidan fikr muloxazalar, olimlar tomonidan sub'ektiv munosabatlar qayd etilgan.

Kalit so'zlar: *sub'ektiv, lisoniy, konseptual, semantik*

Аннотация

В данной статье фиксируются мнения и субъективные установки ученых относительно исследований языкового ландшафта мира.

Ключевые слова: *субъективный, лингвистический, концептуальный, семантический*

Annotation

In this article, the opinions and subjective attitudes of scientists regarding research on the linguistic landscape of the world are recorded.

Keywords: *subjective, linguistic, conceptual, semantic*

Olamning lisoniy tasviri dunyo, borliqni tizim sifatida tashkil etadigan jamiki unsurlarning bizning tasavvurimizda namoyon bo'lishini bildiradi. Ushbu "manzaraning tasavvur etilishi" iborasida kompetentlik, butunlik, aniq maqsadga yo'naltirilganlik jaranglaydi. Olam manzaraga aylangan joyida umuman borliqqa nisbatan xuddi inson butun diqqat – e'tiborini qaratgan narsaga bo'lgani kabi munosabat bildiradi va shuning uchun u ushbu manzarani o'ziga taqdim etish, tasavvur xazinasida olib qolishga harakat qiladi. Mohiyatan anglab yetilgan olam manzarasi shu taxlitda olamni tasvirlaydigan manzarani emas. Balki bunday manzara ma'nosida anglab yetilgan dunyoni anglatadi... Dunyo manzarasi haqida gap ketadigan joyda umuman borliqqa tegishli tub yechim chiqariladi. Borliqning mavjudligini ushbu borliq tasviridan izlashadi va topishadi

G.V.Kolshanskiyning qayd qilishicha. "Olam manzarasi" atamasining o'zidagi "olam" tushunchasi aniqlashtirishni talab qiladi.¹ "Olam" so'zi ma'no ko'lamiga muvofiq olam ikki xilda tushuniladi: , birinchidan, bu –umuman muayyan keng qamrovli narsa tarzida idrok etiladigan, inson boshqa odamlar bilan bir qatorda qamrab olinadigan va uni boshqa kishilar bilan birga birlashtiradigan olamdir. Bunda "umuman olam" qandaydir boshqa olamga qarama-qarshi qo'yilmaydi. Bu o'rinda gap dunyo bilan alohida munosabat vositasida bog'langan inson sub'ektiga qarama qarshi qo'yish haqida bormoqda. Sub'ektiv tarzidagi idrok etish so'zlovchi kishi ongida hosil bo'lgan dunyo manzarasiga muqarrar tarzda ta'sir ko'rsatadiki, u uning dunyo haqidagi fikrida xabar etkazish predmetiga aylanadi

Boshqa tomondan, muqobil dunyolar deb ataladigan olamlar ham mavjud. Bunday olam borliqning boshqa qiyos keltiriladigan soxalaridan farqlanadigan va faqat unga xos qonuniyatlar bilan tavsiflanadigan muayyan soxasidan iborat bo'lishi mumkin.

Bu dunyo odatda unga qarshi qo'yilgan dunyolar fonida idrok etiladi. Masalan fantaziya dunyosi voqelik olamiga qarama- qarshi qo'yilgan, bir ijtimoiy olam boshqa jamiyat dunyosiga qarama-qarshi qo'yiladi.

Ayrimlar "olam" so'zini afzal ko'rishadi. Ammo, bizning "dunyo" so'zi ham yaroqlidir. Chunki odam mening dunyoyim deydi.

Shunday qilib, umuman olam deb ataladigan hamma uchun umumiy narsa sifatida his etiladigan olam aniq bir bayon predmeti bo'lishi mumkin emas. Shuningdek, u bu dunyo haqida boshqa kishiga tasavvur berish uchun mo'ljallanmaydi: "dunyo ko'p jixatdan unga qarshi turadigan sub'ektiv ong bilan o'zaro nisbatda muxokama qilinadi"

O.N.Ermolaeva "dunyolar" ning bir necha "manzaralari"ni keltiradi.

¹ Г.В.Колшанский "Паралингвистика".2010.



- dunyoning lisoniy manzarasi (DLM)- ong maxsuli, tafakkur, voqelik va tilning dunyo xaqidagi fikrlarni ifodalash vositalari sifatidagi o‘zaro xarakati natijasidir.

- dunyoning konseptual manzarasi (DKM)birmuncha keng tushunchadir chunki uning yaratilishida har xil tafakkur tiplari, shu jumladan noverbal tiplar ishtirok etadi.

DLMning ajralmas qismi xisoblanadigan dunyoning nominativ manzarasi tilning ushbu milliy varianti uchun xos bo‘lgan nominatsiyaning o‘ziga xos usul va vositalarni aks ettiradi.

O.N.Ermolaeva qayd qilishicha. DLM deganda tilning turli vositalari yordamida ifodalangan belgilarning atrofda olam haqida axborot beradigan bir tizimli negizda tartibga solingan ijtimoiy modeli tushuniladi.Ko‘pgina olimlarning fikricha, dunyoning konseptual manzarasi (DKM) uning negizini tashkil etadi. Bunda shu narsa ta’kidlanadiki. DKM DLM nisbatan birmuncha murakkab, anchayin nodir hodisadir, chunki, inson idrok etadigan va bilib oladigan hamma narsa ham verbal shaklga kiravermaydi

DLM birliklari ikki tomonlama, ikki yuza – sferalidir, chunki ular mohiyatni belgilarning” jismlari “ bilan birlashtiradi.

.Ter-Minasova insonning atrofda olamni tasavvur qilishining uchta shaklini ajratib ko‘rsatadi: dunyoning tildagi manzarasi ²

Dunyoning real manzarasi bu insondan tashqaridagi ob’ektiv holat, bu insonni o‘rab to‘rgan olamdir.

Dunyoning madaniy manzarasi bu real manzaraning insonning sezish organlari yordamida olingan va uning jamoatchilik hamda individual ongi orqali o‘tgan tasavvurlari negizida shakllantirilgan tushunchalar prizmasi orqali aks etishidir.

Dunyoning lisoniy manzarasi voqelikni dunyoning madaniy manzarasi orqali aks ettiradi. Ammo, baribir, qism yaxlitlik til madaniyatning bir qimining o‘zaro nisbati haqida emas, balki ularning o‘zaro xarakati haqida gapirish to‘g‘riroq bo‘ladi. Demak, dunyoning tildagi manzarasi, mabodo madaniy manzara deganda biz inson ongida mujassam bo‘lgan dunyo obrazini ya’ni insoning moddiy, jismoniy tajribasi va ma’naviy faoliyati natijasida yaratilgan dunyoqarashni tushunadigan bo‘lsak, unda to‘laligicha madaniy manzara bilan qamrab olinmagan. Shunday qilib, dunyoning madaniy va tildagi manzaralari o‘zaro xarakatda bo‘ladi va dunyoning real manzarasiga chiqib boradi.

S.T.Ter-Minasovaning fikricha, dunyoning milliy manzarasi uning tildagi manzarasiga nisbatan birlamchidir. Milliy manzara tegishli tildagi manzaraga nisbatan to‘laroq, boyroq va teranroqdir. Biroq aynan til dunyoning milliy madaniy manzarasini amalga oshiradi, verballashtiradi, uni saqlaydi va avloddan avlodga etkazadi. Til dunyoning milliy qiyofaida mavjud bo‘lgan hamma narsani ham qayd qila olmaydi lekin hamma narsani bayon qilishi mumkin. Bizning fikrimizcha, madaniyatning tilga nisbatan yoki, aksincha, tilning madaniyatga nisbatan birlamchiligi haqida gapirish maqsadga muvofiq emas. Aslida bular ikkita o‘zaro bir biri bilan bog‘langan dunyo manzaralari bo‘lib sabab oqibatli aloqalarning ularga nisbatan qo‘llanishi mumkin emas.

Turli tillardagi ayni bir xil tushunchani ifodalovchi so‘zlar semantik sig‘imiga ko‘ra farqlanishi, voqelikni har xil parchalarini qamrab olishi mumkin. Dunyo manzarasini taqdim etadigan mozaika parchalari inson miyasida atrofda olam in’ikosi natijasida olingan tushunchalar material hajmiga qarab har xil tillarda farqlanishi mumkin. S.T.Ter-Minasovaning fikricha, in’ikos usullari va shakllari ham tushunchalarning shakllantirilishi singari o‘z navbatida ushbu nutq jamoasi hayotining ijtimoiy – madaniy va tabiiy o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Til orqali tafakkurdagi tafovutlar aynan bir xil tushunchani ifodalash shakllarining ortiqchaligini sezishda namoyon bo‘ladi.

G.V.Kolshanskiyning qayd qilishicha, tilning mazmunan tashkil qilinishidagi bir tizimga soluvchi negizni izlashlar lingvistlarni tilning semantik taxliliga olib keldi. Tilga nisbatan bir tizimli qarashni nazarda tutadi. Gap semantik maydon uslubi haqida bormoqda. Semantik maydon deganda qandaydir tushuncha (ba’zan –g‘oya) atrofida guruxlashadigan so‘zlar va so‘z birikmalari nazarda tutiladi. Matnning bunday elementlari “semantik primitivlar” so‘zlar va idiomalar amal qilishini faraz qiladi.

I.Trir fikriga binoan “ semantik maydon”lug‘atning ushbu tilning muayyan “tushunchali”sohasi qamrab oladigan muhim qismidan iborat. “U betakror, o‘zining ichki qonunlari bilan boshqariladi va

² Тер-Минасова С.Г. Словосочетание в научно-лингвистическом и дидактическом аспектах. – М.: Высшая школа, 1982. – 144 с.

Тер –Минасова 2000 Тер –Минасова С.Г. Язык межкультурная коммуникация.М.Слово,2000



o‘zining turli tillarda hamda aynan bir til tarixidagi mavjud shunga o‘xshash xodisalarga o‘xshamaydigan “dunyo manzarasini” amalga oshiradi.

Xatto turli tillar qardosh bo‘lganida ham dunyoning til vositalari orqali idrok qilinishi va konseptuallashtirilishidagi tafovutlar jiddiy bo‘lishi mumkin. Boshqacha aytganda turli tillarda dunyo manzaralari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin.

Dunyoning tilda lisoniy manzarasida etnik mentalitet ushbu tilda so‘zlashuvchilarning atrofidagi dunyo haqidagi mental tasavvurini aks ettiradigan ramziy obrazlarda verballashgan “asosiy” madaniy konseptlarda dolzarblashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Г.В.Колшанский “Паралингвистика”.2010.
2. Тер-Минасова С.Г. Словосочетание в научно-лингвистическом и дидактическом аспектах. – М: Высшая школа, 1982. – 144 с.
3. M.A.Yigitaliyeva, The main concepts and problems of the linguistic and cultural approach- Research Focus, Uzbekistan.2022. Vol.1. Issue.4. UIF.8.2.87-89

